


# QASHQADARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4

16 781



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

4 225



Oilaviy korxonona

137



Unitar korxonona

10 345



Xususiy korxonona

45



Aksiyadorlik jamiyati


560



Boshqa korxonalar


## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar- sentabr oylarida)






# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar



(1- oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)




Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **71,2** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda xizmat ko‘rsatish  
 ■ O‘rmon xo‘jaligi  
 ■ Baliq xo‘jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **25,7** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



284



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

4 440




Ishlab chiqarish sanoati

31



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

62



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 4 817 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 25,7 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 26,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 108,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 11,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 6,9 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,6 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 26,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,3 %) o'sishidir.




# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,3** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**7,3** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**11,2** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar



**26,3** foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 481 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – binolar va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 2,3 % ga (jami qurilishdagi ulushi 66,7 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 6,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 24,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 24,8 %) o'sishidir.

## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 10 218 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 40,6 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 48,0 % ga (jami savdodagi ulushi 72,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 16,3 % ga (jami savdodagi ulushi 19,6 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan – 49,8 % ga (jami savdodagi ulushi 7,7 %) o'sishidir.




- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar





# Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Kichik tadbirkorlik subyektlari soni**



**Mikrofirmalar**

**Kichik korxonalar**




**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar**


**Oilaviy korxonalar**



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**



**Xususiy korxonalar**



• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

734



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18



• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

14



## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



129

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 672

Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar


2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 801 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 42,8 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 41,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlar 59,3 % ga oshgan (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.






Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **42,8** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**43,3** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**49,0** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar




**76,4** foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan **24,8** foizga oshdi




# Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **35,3** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**33,5** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar



**2,7** marta ko'paygan



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar



2020- y.

2021- y.




**16,8** foizga oshdi








Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **9,0** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**9,7** foizga oshdi



## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar



## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**11,1** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar




**30,8** foizga oshdi



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)







Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 4 516 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 699 taga yoki 2,5 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 4 225 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 489 taga yoki 2,4 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 2 357 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 856 taga yoki 4,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 17 260 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 685 taga yoki 37,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 781 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 580 taga yoki 37,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4 112 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 857 taga yoki 1,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 243 tani tashkil etib, ulardan 237 tasi yoki 97,5 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 29 taga yoki 13,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 29 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan.

## Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)






**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat  
ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>55</b>	<b>72</b>	<b>178</b>	<b>210</b>	<b>237</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	3	7	27	37	49
<b>Sanoat</b>	38	43	99	106	110
<b>Qurilish</b>	1	4	9	11	11
<b>Savdo</b>	9	11	20	31	40
<b>Tashish va saqlash</b>	1	1	4	5	4
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	-	2	9	8	8
<b>Axborot va aloqa</b>	1	1	3	1	1
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-	2	4	6
<b>Boshqa turlar</b>	2	3	5	7	8

# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)






## Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>237</b>	<b>163</b>	<b>74</b>
<b>G'uzor</b>	<b>13</b>	10	3
<b>Dehqonobod</b>	<b>15</b>	11	4
<b>Qamashi</b>	<b>14</b>	10	4
<b>Qarshi</b>	<b>17</b>	11	6
<b>Koson</b>	<b>23</b>	14	9
<b>Kitob</b>	<b>20</b>	12	8
<b>Mirishkor</b>	<b>5</b>	3	2
<b>Muborak</b>	<b>9</b>	6	3
<b>Nishon</b>	<b>16</b>	13	3
<b>Kasbi</b>	<b>8</b>	5	3
<b>Chiroqchi</b>	<b>12</b>	10	2
<b>Shahrisabz</b>	<b>6</b>	3	3
<b>Yakkabog'</b>	<b>15</b>	8	7
<b>Qarshi sh.</b>	<b>57</b>	44	13
<b>Shahrisabz sh.</b>	<b>7</b>	3	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Qarshi shahrida 57 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,1 %), Koson 23 ta (9,7 %), Kitob 20 ta (8,4 %), Qarshi 17 ta (7,2 %), Nishon 16 ta (6,8 %), Yakkabog' 15 ta (6,3 %), Dehqonobod 15 ta (6,3 %) va Qamashi tumanlarida 14 ta (5,9 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Qarshi shahri (19,4 %), Chiroqchi (8,5 %), Koson (7,6 %), Qarshi (7,2 %), Kitob (7,2 %), Qamashi (7,0 %), Yakkabog' (6,9 %), Shahrisabz shahri (5,6 %), Shahrisabz (5,1 %), G'uzor (5,0 %), Dehqonobod (4,8 %), Kasbi (4,4 %), Nishon (4,3 %), Mirishkor (3,6 %), va Muborak (3,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2021-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)

2021-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qarshi shahrida (15,8 %), Qamashi (8,7 %), Chiroqchi (8,5 %), Kitob (8,3 %), Yakkabog' (7,9 %), Koson (7,1 %), Qarshi (6,1 %), G'uzor (5,8 %), Shahrisabz (5,7 %), Kasbi (5,3 %), Shahrisabz shahri (4,8 %), Dehqonobod (4,6 %), Nishon (4,5 %), Mirishkor (3,7 %) va Muborak tumani (3,2 %) ulushiga tegishli.




# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Qarshi shahrida (23,7 %), Koson (10,6 %), Qamashi (8,8 %), Chiroqchi (7,7 %), Yakkabog' (7,2 %), Qarshi (6,2 %), Kasbi (5,0 %), Kitob (4,8 %), Mirishkor (4,6 %), Nishon (4,4 %), Muborak (4,2 %), G'uzor (4,0 %), Shahrisabz shahri (3,9 %), Shahrisabz (3,2 %) va Dehqonobod tumani (1,7 %) hissalariga tegishli.




## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017- 2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar- sentabr oylarida, birlikda)




2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Chiroqchi (13,4 %), Shahrisabz (13,1 %), G'uzor (13,0 %), Qarshi tumani (11,7 %), Qarshi shahri (11,2 %), Kitob (10,2 %), Koson (5,6 %), Dehqonobod (4,9 %), Mirishkor (4,8 %), Muborak (2,9 %), Shahrisabz shahri (2,5 %), Yakkabog' (2,5 %), Qamashi (2,1 %), Nishon (1,4 %), Kasbi tumanida (0,7 %), ulushlarini qayd etadi.

## Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar- sentabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.





Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining [www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz) rasmiy saytlarida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni**  
**yuritish bo'limi**  
**Tel.:(75) 221-17-93**